

Anushteginlar davlatida saroy boshqaruv tizimining o'rganilish manbalari

Xabibullo xoji Muxammadyusuf

AIFU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Anushteginlar davlatining saroy boshqaruvini o'rganishning tarixiy manbalari ko'rib chiqilgan. Xorazm davlati qadimda, o'rta asrlar va keyingi davrlarda Markaziy Osiyoda bo'lib o'tgan barcha siyosiy jarayonlarda faol qatnashgan. Ammo, shu davrlar ichida xorazmshoh - anushteginiyalar davri alohida ajralib turadiki, bu davrda Xorazm nafaqat Markaziy Osiyo balki, butun jahon miqyosida ham muhim rol o'ynovchi davlatlardan biri bo'lgan desak hech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Bu sulolaning ba'zi hukmdorlari islam tarixida ham katta ta'sir o'tkazgan. Zero, xorazmshoh - anushteginiyalar sulolasiga mashhur sharqshunos olim V.V. Bartold eng yorqin sulola deb bejiz ta'rif bermagan.

Kalit so'zlar: Anushteginlar, Xorazm, Bartold, xorazmshox, Juzjoniy, Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy, saroy, davlat boshqaruvi, tarixiy asarlar, sulola.

Ma'lumki, XII asrning ikkinchi yarmi XIII asrning boshlaridagi davr islam tarixining eng qorong'u sahifalarini tashkil qiladi. Bizgacha yetib kelgan manbalarning ma'lumotlari bir-birlariga qarama-qarshi bo'lib, muhim tarixiy voqealar sanalarini aniqlash ham qiyin. Bu muammoga hatto V.V. Bartold ham duch kelganini aytgan¹. Vaholanki, bu davr muslimonlar tarixida muhim ahamiyat kasb etadi: bu davrda saljuqiyalar davlati tanozzulga duch kelib, ikki yangi sulola G'uriylar va Xorazmshohlarning yuksalishi, Xorazmshohlarning muslimon raqiblari va qaro-xitoylar ustidan g'olib chiqishlari, ularning tahti itoatida barcha islam olamining sharqiy xududlarining kirishi, qudratli imperiya (soltanat)ga aylanishi davriga to'g'ri keladi. Tashqaridan shunday qudratli ko'ringan sultanatning ichki tomonidan zaifligi tashqi dushman bilan to'qnashuvida tez namoyon bo'lgani esa juda mavhum. Xorazmshohlar bilan hamasr bo'lgan G'uriylar tarixi tarixshunos Juzjoniyning «Tabaqoti Nosiriy» asarida keng yoritilgan. V.V. Bartold Juzjoniy o'z asarini yozishda Ibn Xaysamning «Qisas as-soniy» asaridan, Faxriddin Muborakshoh Marvarudiyning manbashunoslikka oid asaridan keng foydalanganini ta'kidlaydi².

Juzjoniy - Mihojiddin Abu Umar Usmon ibn Sirojuddin Muhammad hijriy 5-rabi al-avval 658/20 fevral 1260 yili o'z asari «Tabaqoti Nosiriy»ni Dehli Sultonii Eltutmishning o'g'li Nosiruddin Mahmud (644-664/1246-1265)ga bag'ishlagan. Umumajhon tarixiga oid mazkur asarning 16-tabaqasida Xorazmshohlar (18 sahifada), 23-tabaqasida esa mo'g'ullarning bosqini haqida (62 sahifada) ma'lumot beradi³.

Xorazmshohlar tarixiga bag'ishlangan eng muhim asarlardan biri al-Juvayniy Alouddin Atomalik ibn Bahouddin Muhammadning «tarixi jahonkusho» asaridir. Mazkur asarda Juvayniy Ibn al-Asirga o'xshab, Abulhasan Ali ibn Zayd Bayhaqiyning «Mashorib at-tajarib va g'avorib al-g'aroib» («Tajribalar» poklanishining joyi va «G'aroib narsalar»ning cho'qqisi) asaridan foydalangan («Mashorib» Ibn Miskaveyhning «Tajarib al-umam» asarining davomidir⁴). Juvayniy asarining ikkinchi jildi xorazmshohlar va Xurosonda hukm surgan mo'g'ullar tarixini 656/1258 yilgacha yoritadi⁵.

Bugungi kungacha etib kelmagan Xorazm tarixiga oid manbalardan yana biri 80 jilddan iborat bo'lgan Abu Muhammad Mahmud ibn Muhammad ibn Arslon al-Abbosiy al-Xorazmiy (vaf.568/1172-73)ning asaridir. Mazkur asarning qisqacha varianti XIV asr kompilyatori az-Zahabiyya (vaf.748/1348) mansubdir. Yoqut al-Hamaviy Abu Muhammad Mahmud al-Xorazmiy asaridan foydalangan⁶.

¹ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. / Сочинения. Том I. - С. 77.

² Бартольд В.В. О некоторых восточных рукописях. // ИРАН, серия VI, т. XIII. - С. 924. - №4.

³ Табакоти Носирий // Кулёзма. Россия ФА ШИ Санкт-Петербургдаги Шарк кулёзмалари институти. - № С 426 (572abb). Нашри: Tabaqati Nasiri. Edited by Abdul Hai Habibi. Kabul. Vol.I. 1963. Vol II. 1964.

⁴ Муфассал каранг: Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. / Сочинения. Том I. - С. 78. Прим.3.

⁵ Жувайний Хужа Алоуддин Атомалик. Тарихи Жахонкушо. // Кулёзма Узбекистон ФА ШИ. - № 610. 261 варак. Яна каранг: Тошов Н.И. «Ta'rix-i dzhahanqusha» Ала ад-дина Джувайни - ценный источник по истории Центральной Азии XII-XIII вв. Автореферат канд.ист. наук. Ташкент: ИВ АН Узбекистана, 2004.- 22 с.

⁶ Ёкут. Иршод. Жилд III. - Лондон. 1910. - Б. 212.



Xorazmshohlar davri tarixiga oid muhim manbalardan murassalot (yoki maktubot, insho) janridagi asarlarni tilga olish mumkin. Bunday rasmiy xat va nomalardan iborat to'plamning biri Rossiya FA sida saqlanadi. Hujjatlarning katta bir qismi muntajabaddin Badi', sulton Sinjarning munshiysi qalamiga taalluqli. To'plamda Rashidaddin Vatvot qalamiga mansub xat va nomalar mayjud (masalan, El Arslonning xalifa devoniga yuborilgan xati). To'plamda Otsizning Sinjarga itoat etgani haqidagi nomasi, Otsizni o'z isyonini oqlab, Sinjarni ayblashi va h. juda qiziqarli materiallar sanaladi⁷.

Ikkinchи hujjatlar to'plami «at-Tavassul ila-t-tarassul» (*Maktablar ila yaqinlashmoq*) bo'lib, muallifi Bahouddin Muhammad ibn Muayad al-Bag'dodiy, Xorazmshoh Tekeshning devoni inshosi qalamiga mansub⁸. Bahouddin Muhammad Xorazmshoh Muhammad tomonidan qatl etilgan mashhur shayx Majidaddin Bag'dodiyning akasi bo'ladi. Asar matnidan hujjatlar 578-579/1182 1184 yillarga to'g'ri keladi. Biroq unda keyingi davrga oid hujjatlar ham uchraydi.

Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyga nisbat berilgan yana bir asar "Kitob nafsat al-masdur fi futuri zamon al-masdur va zamon as-sudur al-futur" dir. Mazkur manba 1930 yili Tehronda nashr etildi⁹. Eron olimi va adibi Mirzo Muhammad Qazvini bu asarni Muhammad Zaydariga nisbat berilishi xato ekani va u an-Nasaviyga taalluqli ekanini isbotlab bergen¹⁰. Mazkur asarni ironlik tarixchi, adib va shoir Rizoqulixon Hidoyat (1800-1871) nashrga tayyorlagan, hamda u shu olim vafotidan ancha keyin Rizoqulixonning kirish so'zi bilan toshbosma shaklida chop etilgan (79+26 varq, kichik hajmda). Rizoqulixon Hidoyatning so'ziga qaraganda mazkur asarning bir nusxasini u Mirzo Abdullo munshiy Tabaristoniyining shaxsiy kutubxonasidan topgan. Muallif asarning nusxasi haqidagi boshqa kodikologik ma'lumotlarini bermagan. Faqat uning 500 yil muqaddam yozilgani ta'kidlangan. Asar nashridan so'ng, yuqorida nomi tilga olingan Muhammadxon Qazviniy «Nafsat al-masdur» matni va ma'lumotlarini tahlil qilib, uning muallifi Muhammad Zaydari emas, balki u Shihobiddin Muhammad Nasaviy qalamiga mansub ekanini isbotlashga urindi. Uning xulosasiga qaraganda Rizoqulixon «Siyrat» muallifining vatani bo'lgan Xorandiz so'zini «Zeyder» deb o'qigan (asarda bu so'z diakratik belgisiz kelgan). Xorandiz esa Nisa shahriga yaqin bo'lgan qal'aning nomi bo'lib, u asarning ikki joyida tilga olingan. Muhammadxon Qazviniy an-Nasaviyning ikkala asarida uchraydigan, she'riy parchalar («Siyrat»da arab tilida, «Nafsat»da forscha), ba'zi voqealarning bayoni va tafsilotlari, muallifning biografik ma'lumotlarini solishtirganda shunday xulosaga kelgan. Muhammadxon Qazviniyning xulosalarini I.Petrushhevskiy ham tasdiqlagan¹¹.

Shihobiddin an-Nasaviyning har ikkala asarida voqealar bayoni yuqori mansabdagi amaldor va shaxs tilidan bayon qilinadi. Masalan, har ikkala asarda muallifning Alamutga, ismoiliylar hukmdori oldiga Jaloliddin farmoniga binoan ular tomoniga qochib o'tgan bir mo'g'ulni Shirkabut qal'asiga etkazish uchun borgani hikoya qilinadi¹². Muallif buyruqni bajarib qaytgach, sultonni o'z qarorghida topmagani, Xorazmshohni topmagach, uch oy Ganjada qolib ketgani, sultonga qarshi Sharaf al-mulkning isyon ko'tarishini bayon qiladi¹³.

1231-yili bahorida muallif Xorazmshoh saroyiga kelganida, uni Mayaforiqin hokimi ayubiylar sulolasidan bo'lgan Shihobiddan al-Malik al-Muzaffar G'oziy huzuriga elchi qilib jo'natiladi¹⁴. Har ikkala asarda ham muallifning Amid yaqinidagi urushdan so'ng (1231 yili avgust oyida) Xorazmshohni qayta ko'rmaganini aytgan.

⁷ Тупламдаги баъзи мактублар нашрига каранг: Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Ч. I. Тексты. СПб., 1898. - С. 23-26, 30-32, 43-44.

⁸ Китоб ат-Тавассул ила-т-тарассул. Бо саъй ва эҳтиоми Бахманёр ва мукаддимайи Мирзо Мухаммадхон Казвини. Техрон, 1315/1936. Баъзи хужжатларнинг нашри: Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Ч. I. Тексты. СПб., 1898. - С. 73-82.

⁹ Нафсат ал-масдур. Иншои Шихобиддин Мухаммад Хурандизи Насави. Тасхих ва тавзихи дуктар Амир X,асон Йаздагирди. Чопи аввал. -Техрон: Тус, Китобхонайи миллии Эрон. 1381. - 948 с. (форс тилида)

¹⁰ Каранг: Петрушевский И. Новый источник по истории монгольского нашествия. // Вопросы истории, 1946. -№ 11-12. - С. 121-126.

¹¹ Петрушевский И. Новый источник по истории монгольского нашествия. // Вопросы истории, 1946. -№ 11-12. - С. 122. Окийи Мирзо Мухаммадхон Казвиний. Дар бобби нусхай «Нафсат ал-масдур» толифи Нураддин Мухаммад Мунши. / Нафсат ал-масдур. Иншои Шихобиддин Мухаммад Хурандизи Насави. - С. 38-81.

¹² Вокея тафсилотлари хакида каранг: Ан-Насавий. Султон жалолиддин Мангуберди (97-боб. Тотоларнинг Султонга Ширкабут чегараларида килган хужуми баёни) - Б. 266 ва кейингилари. «Нафсат ал-масдур». - Б.

38-44.

¹³ Уша жойда.

¹⁴ Вокея тафсилотлари хакида каранг: Ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди (105-боб.) - Б. 287 ва кейингилари. «Нафсат ал-масдур». - Б. 47-48.




«Nafsat al-masdur fi futuri zamon as-sudur va zamon as-sudur al-futur» (Zamona fatarotining sodir bo'lishi va fatarot sodir bo'lishi zamoni shamolining esish ovozi) asari an-Nasaviyning fors tilidagi mustaqil asari sanaladi. Bu asar muallifning esdaliklari bo'lib, unda bayon qilingan voqealarning ishtirokchisi an-Nasaviyning o'zidir. «Siyrat» esa Xorazmshoh Jaloliddin haqidagi tarixiy biografik asar hisoblanadi.

Xulosa: Xorazm yozma merosida o'zbek xalqining davlatchiligi tarixi masalalari keng yoritilgani barcha mutaxassislarga ma'lum. Uch ming yillik davlatchilik an'analariga ega bo'lgan xalqimiz o't mishini turli til va davrarda bitilgan yozma manbalar orqali o'r ganilishi manbashunos olimlar va tarixchilarining muhim ilmiy yo'nalishlarini tashkil qiladi.

Xorazmda bitilgan tarixiy yozma manbalar o'rta asrlar, yangi davrda yaratilgan bo'lib, ular fors, arab va turkiy tillarda etib kelgan. Davr o'tishi bilan ko'pgina manbalar yo'qolib ketgani ham ma'lum. SHu davrarda yozilgan manbalar 1097-yildan, ya'ni Xorazmshoh - anushteginlar davlatining tashkil topishidan to 1231-yilgacha bo'lgan davnri o'z ichiga oladi. Mazkur tadqiqotda Xorazm vohasida yaratilgan shu yozma manbalardagi faqat Xorazmshoh - anushteginlar davlati va ma'muriy boshqaruviga ahamiyat berildi. Mavzuning tarixshunosligi va manbashunosligiga bag'ishlangan adabiyotlar va tadqiqotlar mingdan ham qo'pdir. Manbalardagi ma'lumotlar ham minglab varaqlarni tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yuxati

1. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. / Сочинения. Том I. - С. 77.
2. Бартольд В.В. О некоторых восточных рукописях. // ИРАН, серия VI, т. XIII. - С. 924. - №4.
3. Табакоти Носирий // Кулёзма. Россия ФА ШИ Санкт-Петербургдаги Шарқ кулёзмалари институти. - № 426 (572abb). Нашри: Tabaqati Nasiri. Edited by Abdul Hai Habibi. Kabul. Vol.I. 1963. Vol II. 1964.
4. Муфассал каранг: Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. / Сочинения. Том I. - С. 78. Прим.3.
5. Жувайний Хужа Алоуддин Атомалик. Тарихи Жахонкушо. // Кулёзма Узбекистон ФА ШИ. - № 610. 261 варак. Яна каранг: Тошов Н.И. «Ta'riix-i dzhahanqusha» Ala ad-dina Djuvaini - ценный источник по истории Центральной Азии XII-XIII вв. Автореферат канд.ист. наук. Ташкент: ИВ АН Узбекистана, 2004.-22 с.
6. Ёкут. Иршод. Жилд III. - Лондон. 1910. - Б. 212.
7. Тупламдаги баязи мактублар нашрига каранг: Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Ч. I. Тексты. СПб., 1898. - С. 23-26, 30-32, 43-44.
8. Китоб ат-Тавассул ила-т-тарассул. Бо саъй ва эхтимоми Бахманёр ва мукаддимайи Мирзо Мухаммадхон
9. Казвини. Техрон, 1315/1936. Баъзи хужжатларнинг нашри: Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Ч. I. Тексты. СПб., 1898. - С. 73-82.
10. Нафсат ал-масдур. Инши Шихобиддин Мухаммад Хурандизи Насави. Тасхих ва тавзихи дуктар Амир Хасан Йаздагирди. Чопи аввал. -Техрон: Тус, Китобхонайи миллии Эрон. 1381. - 948 с. (форс тилида) Каранг: Петрушевский И. Новый источник по истории монгольского нашествия. // Вопросы истории, 1946. -№ 11-12. - С. 121-126
11. Петрушевский И. Новый источник по истории монгольского нашествия. // Вопросы истории, 1946. -№11-12. - С. 122. Окойи Мирзо Мухаммадхон Казвиний. Дар бобби нусхай «Нафсат ал-масдур» толифи Нураддин Мухаммад Мунши. / Нафсат ал-масдур. Инши Шихобиддин Мухаммад Хурандизи Насави. - С.38-81.



12. Вокеа тафсилотлари хакида каранг: Ан-Насавий. Султон жалолиддин Мангуберди (97-боб. Тотоларнинг Султонга Ширкабут чегараларида килган хужуми баёни) - Б. 266 ва кейингилари. «Нафсат ал-масдур». - Б.38-44..

13. Вокеа тафсилотлари хакида каранг: Ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди (105-боб.) - Б. 287 ва кейингилари. «Нафсат ал-масдур». - Б. 47-48.